



XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDA BO‘LIB O‘TGAN XIX YOZGI OSIYO O‘YINLARIDA ISHTIROK ETGAN O‘ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI A‘ZOLARIGA

**Hurmatli sportchi va murabbiylar!
Qadrlri farzandlarim!**

Avvalo, Xitoyning Xanchjou shahrida o‘tkazilgan XIX yozgi Osiyo o‘yinlarida **munosib ishtirok** etib, yuksak natijalarni qo‘lga kiritganingiz bilan siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbidan **samimiy muborakkob etaman**.

Sizlarning jonajon O‘zbekistonimiz sharafini himoya qilish yo‘lida keskin kurash olib borib, ulkan yutuqlarga erishganingiz, hech shubhasiz, barchamizni, ko‘p millatli xalqimizni cheksiz quvontirdi.

Bepoyon qit‘amiz miqyosida har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan ushbu nufuzli sport anjumanida yurtidoshlarimiz sizlarning har bir chiqishingizni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali katta qiziqish va hayajon bilan kuzatib bordi. Butun O‘zbekiston ahli sizlarni qo‘llab-quvvatlab, **Yaratgandan omad va zafarlar tiladi!**

Osiyo qit‘asining **45 ta** davlatidan **11 ming** nafar sportchi ishtirok etgan bu musobaqalarda milliy terma jamoamiz a‘zolari o‘zlarining beqiyos mahorati, g‘ayrat va matonatini, g‘alabaga bo‘lgan yuksak intilish va irodasini namoyon etib, **22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza** medalini qo‘lga kiritganlari har qanday tahsinga sazovordir.

Oltin medallar **31 nafar** sportchimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, ularning teng yarmi — qizlarimiz hissasiga to‘g‘ri kelganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidlashni o‘rinli deb bilaman.

132 nafar vakilimiz **jami 71 ta** medalni qo‘lga kiritib, o‘tgan Osiyo o‘yinlariga nisbatan **rekord natijani qayd etganlari** ham barchamizni quvontiradi.

Ayniqsa, g‘ayrat-shijoatli o‘g‘il-qizlarimiz **Xitoy Taypeyi, Bahrayn, Shimoliy Koreya, Gonkong, Eron, Indoneziya, Qozog‘iston, Qatar, Singapur, Malayziya, Vyetnam, Kuvayt** kabi sport sohasida rivojlangan davlatlarni ortda qoldirib, umumjamoa hisobida **Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindistondan** keyin **faxrli beshinchi o‘rinni egallaganliklari** O‘zbekiston sporti tarixida yana bir yorqin sahifa ochdi, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bo‘lib o‘tgan qizg‘in bellashuvlarda yurtimiz sharafigini munosib himoya qilgan Bahodir Jalolov, Jalgasbay Berdimuratov, Ulug‘bek Rashitov, Hasanboy Do‘smatov, Abdumalik Xalakov, Diyora Keldiyorova, Taxmina Ikromova, Sevinch Rahimova, Vilana Savadyan, Evelina Atalyans, Sharifa Davronova, Safina Sa’dullayeva, Muza’ffar To‘raboyev, Olga Zabelinskaya, Shohmurod Xolmurodov, Nurisalom To‘xtasin o‘g‘li, Umid Esonov, Artyom Shturbabin, Hilola Ortiqboyeva,

Muhsin Hisomiddinov, Zaynab Dayibekova, Pliyego Lara Mariya Paola, Xerrera Lara Luiza Fernanda, Guliston Perdebayeva, Anna Prakaten, Shehroz Hakimov, Dilshodjon Xudoyberdiyev, Davirjon Davronov, Alisher Turdiyev, Murodjon Yo‘ldoshev va boshqa sportchilarimizning nodir iste’dodi, mahorati va qobiliyatiga barcha sport muxlislari yana bir bor tan berdi.

O‘zbek qilichbozlik sportining itifoxiga aylangan **Zaynab Dayibekova sabliya jamoa** dasturida Osiyo qit‘asida tengsizligini, **Anvar Klevleyev esa slalomda eshkak eshish** bellashuvida kuchli raqib ekanligini namoyon etdilar.

Ayni vaqtda navqiron farzandlarimiz kurash, dzyudo, boks, yengil atletika, badiiy gimnastika bo‘yicha tengsiz, taekvondo, velosport, og‘ir atletika, futbol musobaqalarida esa yetakchilar safida ekanlarini amalda isbotladilar.

Osiyo o‘yinlarida erishilgan bunday yutuqlar biz uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, sizlar shu tariqa milliy sport maktabimizning shon-shuhratini, O‘zbekiston yoshlarining qanday buyuk ishlariga qodir ekanini jahonga namoyon etdingiz.

O‘z navbatida 2024-yil Parijda bo‘lib o‘tadigan 33-olimpiya o‘yinlarida ham yuksak cho‘qqilarni zabt etishingizga ishonaman!

Hech shubhasiz, sizlarning yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, yuqori o‘rinlarni egallaganingiz mamlakatimizda sog‘lom va barkamol, vatanparvar yosh avlodni — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini voyaga yetkazish, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish maqsadida olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning yana bir amaliy natijasi sifatida barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi, millionlab tengdoshlaringiz uchun o‘rnak va namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, sizlar kabi salohiyatli, irodasi mustahkam, el-yurtga sadoqatli yoshlarni tarbiyalab kamolga yetkazgan mehribon otanalaringizga, sizlar bilan yonma-yon turib, yuksak cho‘qqilarni zabt etishingizga munosib hissa qo‘shgan mohir va jonkuyar ustoz-murabbiylaringizga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chin dildan tashakkur izhor etaman.

Yirik xalqaro sport bellashuvi — Osiyo o‘yinlarida qo‘lga kiritgan tarixiy natijalaringiz bilan sizlarni yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga sihat-salomatiik, kelgusi faoliyatingizda yangi-yangi zafarlar, oilalaringizga baxtu saodat tilayman.

Doimo baxtingiz va omadingizni bersin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI G‘ALABALARI

Xitoyning Xanchjou shahri mezbonlik qilgan XIX yozgi Osiyo o‘yinlarida sportchilarimiz **22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza**, jami **71 ta** medalni qo‘lga kiritib, **45 mamlakat orasida faxrli beshinchi o‘rinni** egalladi.



FARMON VA IJRO

XALQ KONSTITUTSIYASI RUHI Hayotimizda qanday aks etmoqda?

Konstitutsiyamizni umumxalq referendumi asosida yangi tahrirda qabul qilganimiz va uning kuchga kirganiga ham besh oydan o‘tibdi. Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi farmonida ta’kidlanganidek, mamlakatimiz tarixida ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish uchun o‘tkazilgan referendum ko‘p millatli buyuk xalqimiz birdamligi va hamijhatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat’iy qaror qilganining ishonchli ifodasi bo‘ldi.

Bosh qonunda davlat qurilishining yangi strategik maqsadi ijtimoiy davlat qurish ekanini belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Shuning uchun Konstitutsiyada mustahkamlangan ustuvor tamoyillarni so‘zsiz va to‘liq amaliyotda qo‘llash, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his

etib turishini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Negaki, Konstitutsiya oddiy odamlar turmushida ishlashga hayotiylik kasb etadi, aksincha bo‘lsa, uning qiymati faqat qog‘ozlardagina qolib ketaveradi.

Oradan besh oy o‘tib Bosh qonunimizni kundalik hayotda qo‘llashga kirishdikmi? Uning normalari mazmun-mohiyati bilan to‘liq tanishishga ulguridikmi? Shunday bo‘lsa, Konstitutsiyaning hayotimizdagi aksi nimalarda ko‘zga tashlanmoqda?

Davomi 3-betda

DOLZARB MAVZU

Prezidentimiz joriy yil 28-iyul kuni hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan Farg‘ona shahrida o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida jinoyatga qo‘l urgan shaxslarning har uchinchisi yoshlar ekanini afsus bilan qayd etdi. Idoralararo kengash tuzib, yoshlar bilan manzilli ishlash dasturlarini amalga oshirish vazifasi qo‘yildi.

YOSHLAR TAQDIRIGA TOMOSHABIN BO‘LIB TURISH JAMIYATIMIZ UCHUN MUTLAQO BEGONA

Bugun bu borada tezkor chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, yaqinda ichki ishlar vazirining mamlakatimiz aholisiga murojaatida ham aytilganidek, endilikda “Oila — mahalla — maktab — mustaqil hayot” tamoyili asosida tarbiyasi og‘ir o‘smirlarga vazirlik, idora va tashkilot rahbarlari birlashtiriladi, mustaqil hayotga tayyorlash davrida ular bilan yakka tartibda ishlash mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun “Voyaga yetmaganlar bilan ijtimoiy-huquqiy ishlash klasteri” tizimi joriy etiladi. Bunda o‘smirlarni uch toifaga bo‘lgan holda

mutasaddilar tomonidan “otaliqqa olish” tartibi belgilanadi.

Jinoyat sodir etgan yoki jinoyat qilishga moyil bo‘lganlarga huquq-tartibot idoralari rahbarlari va rahbar o‘rinbosarlari, ijtimoiy zararli xatti-harakat sodir etishi mumkin bo‘lganlarga davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari va rahbar o‘rinbosarlari, nazoratsiz va qarovsiz qolganlarga hokimliklar, ta’lim muassasasi direktorlari va mahalla raislari birlashtiriladi.

Davomi 5-betda

BUGUNNING GAPI

MARKAZIY OSIYO ENERGETIKA BARQARORLIGI istiqlol va imkoniyatlar

Prezidentimiz Dushanbada bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqlarida energetika sohasida xavfsizlikni ta’minlash masalasiga bejiz to‘xtalmadi. Afsuski, mintaqada energetika infratuzilmasini rivojlantirish sur’atlari sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari, shuningdek, demografik o‘shishdan orqada qolmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqamizda energetika infratuzilmasini rivojlantirishga jiddiy tahdid solmoqda.

Bunday sharoitda tarmoq vazirlilari va milliy kompaniyalarning geologiya-qidiruv ishlari olib borish, istiqbolli konlarni o‘zlashtirish, energiya resurslarini saqlash va yetkazib berish bo‘yicha mavjud infratuzilmalarni kengaytirish va zamonaviy infratuzilma yaratish borasidagi hamkorligini yanada kuchaytirish zarurligi taklif etildi. Darhaqiqat, energiya manbalarini diversifikatsiya qilmasdan, muqobil energetika yo‘nalishiga investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb etmasdan turib, mintaqani barqaror rivojlantirish mumkin emas.

Mintaqamizda aholi soni o‘shishi, turmush tarzining yaxshilanishi, iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlarning ko‘payishi natijasida elektr energiyasiga bo‘lgan talab ham parallel ravishda oshib boryapti. Elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasidagi muammolar ham ortmoqda. Chunki qo‘shimcha miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarish yuklamani ham oshiradi, yildan-yilga energiya resurslarining yetishmovchiligi vujudga keladi. Bu o‘z o‘rnida elektr energiyasi tariflarining oshishiga sabab bo‘ladi.

Davomi 4-betda



YANGICHA YONDASHUVLAR

DAVLAT XIZMATI:
BARCAGA TENG HUQUQ
VA IMKONIYAT

Xar bir davlatning taraqqiyoti ko‘p jihatdan malakali kadrlarga bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi eng iqtidorli mutaxassislarni davlat xizmatlariga jalb qilishdagi muhim omil samarali motivatsion tizim joriy etilganida ekanini ko‘rsatmoqda.

Misol uchun, Germaniya, AQSH va Yaponiyada davlat xizmatlariga eng istiqbolli kadrlarni jalb etishda kuchli motivatsion tizim mavjud. Xususan, davlat xizmatchilari uchun mehnatga yaxshi haq to‘lashda, uy-joy olishda, tibbiy xizmat ko‘rsatilishida, malaka oshirishda va transport xizmatlaridan foydalanishda ko‘plab imtiyozlar bor.

Yurtimizda ham eng istiqbolli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga jalb qilishda ochiq va mustaqil tanlov tizimini joriy etish, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirish hamda ularning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga alohida e‘tibor qaratilayotgani tahsinga sazovor.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat xizmatiga kirishda fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratilishi maxsus norma bilan mustahkamlandi.

Keyingi yillarda davlat xizmatiga qabul qilish ochiq tanlov bo‘yicha o‘tkazilib, kadrlarning xizmat bo‘yicha o‘sib borishi bilan bog‘liq faoliyat teng huquqli tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Bosh qonunimizda fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo‘lishi kafolatlanishi davlat xizmatining raqobatbardoshligini, ochiqligi va professionalligini oshiradi.

Mazkur islohotlar izchilligini ta‘minlash maqsadida Navoiy viloyatida vacancy.args.uz portali orqali bugunga qadar 39 ta hududiy davlat organi va tuman (shahar) lar bo‘limining 812 ta vakant o‘rni uchun tanlovlar yakunlandi. Tanlovlarga 14 mingdan ziyod nomzod hujjat topshirdi va 5400 dan ortig‘i davlat xizmatiga kirish uchun test bosqichida bilimni sinab ko‘rdi. Tanlovlar yakuni bo‘yicha 180 dan ortiq malakali nomzod davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilindi.

Muzaffar TURDIMOV,
Davlat xizmatini
rivojlantirish agentligi
Navoiy viloyati
filiali bosh inspektori



HUDUDLAR HAYOTI

NARXNING SUN‘IY
OSHIRILISHIGA CHEK QO‘YILDI

Surxondaryo viloyatida suyuqlirilgan gaz bo‘yicha 400 mingdan ortiq iste‘molchi bo‘lsa, shundan 50 ming nafardan ortig‘i Denov tumaniga to‘g‘ri keladi. Viloyat markazidan tashqari barcha tuman va shaharlarda suyuqlirilgan gaz iste‘molchilari mavjud. Ularga belgilangan muddatlarda, reja-grafik bo‘yicha suyuqlirilgan gaz yetkazib berilmoqda. Jumladan, iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatish uchun 100 ta avtotransport vositasi ajratilgan.

Hududda 8 ta gaz tarqatish shoxobchasi va 3 ta gaz taqsimlash stansiyasi faoliyat ko‘rsatadi. Jamiyatning qator sohalari kabi suyuqlirilgan gaz ta‘minoti tizimiga ham raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi bilan bugun oldingiga nisbatan ish unumdorligi tubdan farq qilmoqda. Aniq natijalarga e‘tibor qaratamiz. “Hududgazta‘minot” AJ tomonidan suyuqlirilgan gaz ta‘minotida avtomatlashtirilgan tizim joriy etilgach, hududlarda aholiga gaz tarqatadigan mas‘ul shaxslarning ta‘minot xaridi uchun iste‘molchidan naqd pul qabul qilishiga chek qo‘yildi. Bundan ko‘zlangan maqsad, birinchi navbatda, shaffoflikni ta‘minlashdir.

Masalan, shu vaqtgacha agarda 20 kilogramm uglevodorodli suyuqlirilgan gaz solingan bitta ballon xaridi uchun belgilangan tartib bo‘yicha 22 400 so‘m to‘lanishi kerak bo‘lsa, iste‘molchi soha xodimiga kamida 23 000 so‘m berardi. Xodim esa 600 so‘m qaytarishiga to‘g‘ri kelardi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu iste‘molchi va soha xodimi o‘rtasida turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘lardi. O‘rtada aholining tizimga bo‘lgan ishonchiga putur yetishi ehtimollari ham yo‘q emasdi. Hozir esa iste‘molchi o‘ziga taqdim qilingan ID kartani yetarli mablag‘ bilan ta‘minlaydi. Gaz ballon olganida, uning hisobidan 22 400 so‘m yechib olinadi. Iste‘molchining telefon raqamiga xarid ma‘lumoti haqida “sms” xabarnoma keladi

— Iste‘molchi ko‘p, ba‘zi mahallalar tog‘li hududlarda joylashgan, — deydi “Denovtuman gaz” gaz ta‘minoti bo‘limi xizmat boshlig‘i G‘iyosiddin Pirnazarov. — Demak, ish hajmi ham shunga yaraSha. Iste‘molchilar orasida gaz balonni vaqtida qabul qilmaydigan yoki karta-siga mablag‘ to‘ldirishni unutib qo‘yadiganlari ham bor. Bir yoki ikki nafar iste‘molchi uchun gaz balloni tashuvchi texnikaning shu hududga qaytib kelishi ortiqcha xarajat talab etadi, xodimlarning qancha vaqti bekorga ketadi. Shuning uchun iste‘molchilar mas‘uliyatni oshirishlari zarur.

Tabiiy gaz yetib borishi qiyin bo‘lgan hududlar aholisini gaz balloni bilan belgilangan muddatda ta‘minlab borish eng muhim masalalardan biri. Bunda iste‘molchi ham o‘z majburiyatini unutmasligi zarur. Aslida, belgilangan me‘yor bo‘yicha har bir iste‘molchiga gaz balloni kamida bir oyda, uzog‘i 40-45 kun oralig‘ida yetkazilishi kerak.

“TABIIY GAZ YETIB BORISHI QIYIN BO‘LGAN HUDUDLAR AHOISINI GAZ BALLONI BILAN BELGILANGAN MUDDATDA TA‘MINLAB BORISH ENG MUHIM MASALALARDAN BIRI. BUNDA ISTE‘MOLCHI HAM O‘Z MAJBURIYATINI UNUTMASLIGI ZARUR. ASLIDA, BELGILANGAN ME‘YOR BO‘YICHA HAR BIR ISTE‘MOLCHIGA GAZ BALLONI KAMIDA BIR OYDA, UZOG‘I 40-45 KUN ORALIG‘IDA YETKAZILISHI KERAK.”



Ammo “guruch kurmaksiz bo‘lmaydi”. Afsuski, oldin tizimdagi ba‘zi xodimlarning ishiga sovuqonlik, e‘tiborsizlik bilan yondashgani bois, qaysidir hududlarda iste‘molchilarga o‘z vaqtida gaz balloni yetib bormaslik holatlari ham kuzatilgan (resurs masalasi bundan mustasno). Avtomatlashtirilgan tizim imkoniyatlari tufayli esa bu kabi kamchiliklar to‘liq bartaraf etilmoqda.

Abonentlarga berilgan ID kartalar “E-Gaz” onlayn tizimiga ulangan va iste‘molchi bir oy to‘masdan turib, yan-

Surxondaryo viloyati tog‘li va cho‘l hududlardan iborat. Aloqa sifati har xil. Ammo bu yangi tizimni aloqa sifati yaxshi bo‘lmagan hududlarda joriy etishning imkoni yo‘q, degani emas. Iste‘molchilarning suyuqlirilgan gaz ta‘minoti uchun “E-Gaz” tizimini faollashtirishda viloyatdagi aloqa xizmati yaxshi bo‘lgan hududlarda “on-line” tizimdan foydalaniladi.

Aloqa xizmati yaxshi bo‘lmagan 17 mahalla va qishloq, jumladan, Sariosiyo tumanining “Kundajjuvoz”, “Maland”, “Chosh”, “Xonjiza”, Boysun tumanining “Machay”, “Qizilnavr”, “O‘rmonchi”, “Ho‘jaydod”, Uzunning “Terak”, “Anarbu-loq”, “Ho‘jaqursin”, “Bobotog‘”, “Tomchi” Sherobodning “Zarabog‘”, “Qizil olma”, “Chorbog‘” va “Vandob” hududlarida “Ye-gaz” tizimini faollashtirishda “of-line” tizim yo‘lga qo‘yilgan.

Ya‘ni iste‘molchi yetkazilgan gaz balloni uchun karta orqali hisob-kitobni amalga oshiradi. Ammo undan qabul qilingan mablag‘ ushbu hududda bazada ko‘rinmaydi. Gaz xodimlari aloqa mavjud hududga chiqishgach, “E-Gaz” tizim xotirasida saqlangan mablag‘lar bazada ko‘rinadi va iste‘molchining bir dona gaz balloni uchun to‘lovni amalga oshirgani tasdiqlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, raqamli iqtisodiyot aniqlikni, ish unumdorligi va sifatini ta‘minlaydi. Eng muhimi, iste‘molchi va xodim o‘rtasida ishonchli ko‘priq vazifasini bajaradi.

Aziz MASHRABOV,
jurnalist



ISLOHOTLAR — AMALDA

Zokir ALLAMURODOV,
O‘zbekiston fermer, dehqon
xo‘jaliklari va
tomorqa yer egalari kengashi
bo‘limi boshlig‘i

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ham taklifga, ham talabga mos mahsulot ishlab chiqarish, o‘zaro savdoda barcha tomonlar manfaatdorligini ko‘zlashni nazarda tutadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan eng katta islohotlardan biri ham shu — har sohada bozor munosabatlarini shakllantirish. Bu, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida katta samara bermoqda. Birgina bug‘doy va paxtani erkin savdoga chiqarish va mustaqil narx belgilashning joriy etilishi tizimda chin ma‘noda inqilob yasadi, desak xato bo‘lmaydi.

Bugun dehqon, fermer xo‘jaligiyo to-morqa yer egalariining bari o‘zi yetishtirgan mahsulotga o‘zi egalik qilish huquqiga ega. Istalgan xaridorga, bozordan kelib chiqqan holda o‘zi narx belgilaydi. Tabiiyki, daromadi ham o‘ziga qoladi. Shuning uchun yillar davomida xalqimizga og‘ir mehnat, dehqon va fermerga esa yelkasiga osilgan katta yuk, rejani bajarish majburiyati bo‘lib kelgan paxta xomashyosini yetishtirish hozirga kelib eng daromadli va zamonaviy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Endilikda yurtimizda yetishtirilgan paxta xomashyosi narxi davlat tomonidan emas, balki bozor tamoyillari asosida belgilanmoqda. Bu Prezidentimizning joriy yil 26-yanvardagi “Paxta xomashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan mustahkamlab qo‘yildi. Unga

ko‘ra, narxlar bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq, har bir hududdagi yerning holati, mahsulot yetishtirish uchun ketgan sarf-xarajalar, bozordagi talab va taklifdan kelib chiqib, bevosita oluvchi va sotuvchi tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Ya‘ni fermer va dehqon o‘zi yetishtirgan paxta xomashyosini xaridor bilan o‘zaro kelishilgan narxda sotish huquqiga ega.

Ana shunday imkoniyatlar sabab diyorimizda paxta yetishtirish yangi bosqichga ko‘tarilib, hosildorlik yil sayin ortmoqda. Shu kunlarda yurtimiz bo‘ylab qizg‘in davom etayotgan paxta terimi ham natija avvalgi yillardan yuqoriroq bo‘lishiga ishora bermoqda. Hududlarda birin-ketin xirmonlar yaratila boshlandi. Ilk xushxabar ovozi Surxondaryo viloyatidan yangradi. Viloyat paxtakorlari yurtimizda birinchi bo‘lib terimga kirishdi. Ular ilk bor 30 kun ichida belgilangan hosilni yig‘ishtirib olishga muvaffaq bo‘ldi. Natija esa 268 ming 109 tonnalik paxta xirmoni. Mo‘l hosil olish uchun vohadagi 12 ta paxta-to‘qimachilik klasteri 2 ming 96 fermer xo‘jaligi bilan shartnoma tuzgan.

Paxta yetishtirish avvaldan O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim qismi bo‘lib kelgan. Hozir ham shunday. Ammo endi yurtimiz paxta xomashyosini eksport qiluvchi davlat emas, balki uni to‘liq qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarib, xorij bozoriga bir necha barobar qimmatga sotayotgan mamlakatlar qatoriga qo‘shildi. Qolaversa, qishloq xo‘jaligining yirik va zamonaviy tarmog‘iga aylanib borayotgan bu yo‘nalish ko‘proq dehqon va fermerlar daromadini ko‘paytirish, xalqimizning moddiy farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Klaster va fermer xo‘jaliklari hamkorligi, ayniqsa, muvaffaqiyatlar garovi bo‘lyapti. Ushbu yondashuv mamlakatimiz tajribasida sarf-xarajalar, bozordagi talab va taklifdan sohada katta yutuqlarga yo‘l ochayotgani sir emas. Jarayonda paxta-to‘qimachilik klasteri o‘ziga birlashtirilgan fermerning chig‘itni ekishidan to‘ hosilni yig‘ib olgunigacha barcha zarur sharoitni yaratib bermoqda. Zamonaviy, resurstejamkor texnologiyalar bilan ta‘minlayapti. Fermer esa shartnoma bo‘yicha klasterga sifatli hosil topshiradi. Narx o‘zaro kelishuv asosida belgilanadi. Shu tariqa har ikki tomon moddiy manfaat ko‘radi.

Umuman, so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligimizda fermer xo‘jaliklari tobora faollashib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Imkoniyat va qo‘shimcha imtiyozlar sabab ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari soni

ortmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 90 mingga yaqin ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi mavjud bo‘lib, 30 mingdan ortig‘ida paxta yetishtirilayotgani buning isboti.

Ularining faoliyatida, ayniqsa, ilmiy yondashuvlar, zamonaviy va resurstejamkor texnologiyalarni jalb etishga alohida e‘tibor qaratilayotgani soha rivojini jadal-lashtirmoqda. Chunki hozirgi zamonaviy qishloq xo‘jaligini ilg‘or texnologiyalardan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Eskicha yondashuvlar ham bugungi kun talabiga mos emas. Tasavvur qiling, o‘n kishi bajaradigan ishini bitta qurilmaning o‘zi uddalasa, qancha resurs tejab qolinadi. Qolaversa, hozir zamonaviy texnika bilan ta‘minlangan, ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash,



qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda ham samarali faoliyat yuritaypti.

Joriy yilda paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan 5 mingdan ortiq eng so‘nggi rusumdagi qishloq xo‘jaligi texnika va agregati xarid qilingach, 48 foiz maydonda chigit yuqori umumiy zamonaviy pnevmatik seaykalarida ekildi. Natijada 24 milliard so‘mlik 15 ming tonna urug‘lik chigit, 50 milliard so‘mlik dizel yoqilg‘isi tejab qolindi.

Yurtimiz bo‘yicha 300 ming gektardagi g‘o‘za nihollari tomchilatib sug‘orilishi natijasida 1,5 milliard kub metrqa yaqin suv resurslari, 50 ming tonnadan ortiq mineral o‘g‘it, 10 ming tonnaga yaqin yoqilg‘i-moylash materiallari iqtisod qilingan.

Toshkent viloyati Bo‘ka tumanidagi “Ko‘k Orol Siti” fermer xo‘jaligi ham joriy yil 30 gektar maydonda tomchilatib sug‘orishni yo‘lga qo‘yg‘an edi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, natija kutilganidan ham a‘lo bo‘lgan. Ana o‘sha maydonda 50 foizgacha suv, 80 foizgacha mineral o‘g‘it tejab qilingan. Xo‘jalik har yili 1 gektar maydonga 700 kilogramm o‘g‘it

ishlatgan bo‘lsa, bu yil shuncha hajmdagi yerga sarf etilgan o‘g‘it 80 kilogrammdan oshmagan. Ayni paytda fermer xo‘jaligi 1 gektar paxta maydonidan 35-40 sentnerdan hosil olmoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan hamkorlikning samarali tomoni ham shunda — fermer xo‘jaliklarini yangi texnika vositalari bilan ta‘minlab, moddiy resurslarni o‘z vaqtida yetkazib bermoqda. Shularning hisobiga mamlakatimizda paxta hosildorligi keyingi uch yilda 5-6 sentner ko‘payishiga erishildi. Tizimda xomashyoni dastlabki qayta ishlashdan tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan qo‘shimcha qiymat zanjiri yaratilib, 2017-yildagiga nisbatan ip-kalava ishlab chiqarish ikki barobar, tayyor mahsulot hajmi uch barobar ortdi. Klasterlar quvvati evaziga tola ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari 148 foiz, ip-kalava 83 foiz, mato to‘qish 19 foiz, tayyor mahsulot 66 foizga yetdi.

Ya‘ni fermer xo‘jaligi klasterining moddiy ko‘magida sifati, yuqori hosildor xomashyo yetkazib berayotgan bo‘lsa, klaster uni qayta ishlab, bozorga tayyor mahsulot chiqarganda. Bundan xalq ham manfaatdor — hududlarda qanchadan-qancha yangi ish o‘rinlari yaratilaypti.

Paxta terimi ham bozor tamoyillari asosida tashkil etilayotgani, ayniqsa, quvonarli. Daromad topish maqsadida o‘z ixtiyori bilan dalaga chiqqan terimchilarga tergan paxtasi uchun ish haqi shu kunning o‘zida to‘lab berilmoqda. Ish jarayonida qiyinchilik sezmasliklari uchun barcha shart-sharoit yaratib berilgan. Dala boshida issiq ovqat, uzoqdan qatnaydigan terimchilar uchun transport xizmati yo‘lga qo‘yilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, tizim erkin bozor iqtisodiyoti joriy etilishi ortidan har kim mehnatiga yarasha daromad topadigan, mustaqil ish yuritiladigan, tanlovni ixtiyoriy amalga oshiradigan yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Endi dehqon va fermerlar paxta yetishtirishdan qo‘rqmaypti, aksincha, tarmoq yil sayin sardaromad yo‘nalishga aylanib, unda agrar tadbirkorlar, paxta-to‘qimachilikka ixtisoslashayotgan fermer xo‘jaliklari soni ortib bermoqda.

FARMON VA IJRO

XALQ KONSTITUTSIYASI RUHI

Hayotimizda qanday aks etmoqda?



Sardorbek YUSUPOV,
yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Keng yo‘l va teng imkoniyat

Inson va uning manfaatlari tom ma‘noda oliy qadriyat darajasiga yetishida Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta‘minlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Amir Temur davlatni idora qilishda qonunlarning hayotiy kuchini quyidagicha izohlagan: *“Davlat agar dinu oyin (tartib) asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi”*.

Yangi tahrirdagi Bosh qonunimizni xalqimiz o‘z Konstitutsiyasi sifatida qabul qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, yurtdoshlarimiz ortga qaytmas tus olgan keng ko‘lamli islohotlarga katta ishonch bilan qarayotganini namoyish etadi.

Mamlakatimizda “Inson — jamiyat — davlat” tamoyili asosida islohotlar izchillik kasb etmoqda. Davlat boshqaruvi va davlat xizmatchilari xalqni eshitish, uning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash va,

albatta, muammoni tezkor hal qilishga o‘rgandi, o‘rganmoqda.

Davlat boshqaruvining xalqchilligi va samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri, shubhasiz, davlat idoralariga ishga qabul qilishning ochiq-oshkora tizimini joriy etishdir.

BMtning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida **“Har bir inson o‘z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega”**ligi belgilangan. Shuningdek, “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt mazmunida fuqarolar hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz o‘z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish huquqi hamda imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerakligi mustahkamlangan.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ham ana shu xalqaro me‘yoriy qoidalar aks etgan. Xususan, unda **“O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar”**, degan qoida belgilangani davlat xizmatchilarini tanlash, ulami rivojlantirish va lavozim pillapoyalarida yuqorilab borishining yangi konstitutsiyaviy asosini vujudga keltirdi.

Ya‘ni mazkur konstitutsiyaviy norma davlat xizmatiga tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash kabi salbiy illatlarga butunlay barham berib, zamonaviy bilim va salohiyatli kadrlarning ochiq va shaffof tanlov tizimi orqali davlat xizmatiga kirishiga zamin yaratdi. Zotan, adolatli tanlov asosida lavozimni egallagan va halol mehnati bilan xalqqa xizmat qiladigan davlat xizmatchilari korpusi mamlakat va jamiyatning rivojlanish pulsini belgilab beradigan asosiy omillardan biridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida kadrlarning bilim va salohiyatini zamonaviy uslublar asosida baholash yo‘li bilan eng munosiblarni davlat xizmatiga jalb qilish imkoniyati yaratildi. Davlat xizmati



tizimiga salohiyatli kadrlarni keng jalb qilish orqali davlat boshqaruvi samaradorligi va barqarorligini ta‘minlashga kirishildi.

Konstitutsiyada davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha teng imkoniyatga egaligi mustahkamlanishi davlat boshqaruvida ishtirok etish istagidagi fuqarolarga keng yo‘l va teng imkoniyat yaratilishini anglatadi.

Qayd etish lozimki, davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi prinsipi 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunda ham mustahkamlangan.

Uzoq kutilgan mazkur qonun davlat fuqarolik xizmati tatbiq etiladigan barcha vazirlik va idoralarda xodimlarni ishga qabul qilish, ularning faoliyat samaradorligini baholash, xizmat pog‘onalarida o‘stirish, rag‘batlantirish yoki intizomiy jazolash hamda xizmatni tugatish masalalarida har xil yondashuvlarga batamom barham berdi.

Ko‘pchilgimiz ilgari davlat xizmatiga kirishda shaxsiy ma‘lumotnomaning orqa tomonidagi qaydlar yoxud “yuqoridan” bo‘lgan qo‘ng‘iroqlarning muhim o‘rin tutganiga guvoh bo‘lganmiz. Kadrlarning shaxsiy fazilatlarini, bilimi, ko‘nikmasi,

kompetensiyalari, ish malakasi ikkinchi o‘ringa tushib qolgan. Shu bois, kadr qo‘yilgan vazifani mustaqil hal qilishi, kreativ fikrlashi va erishgan yutuqlarini aks ettiradigan shaffof va adolatli tizimga ehtiyoj katta edi.

Yana bir muhim jihat — meritokratiya tamoyili orqali zamonaviy bilimlarga ega, yuqori malakali, tahliliy fikrlay oladigan munosib kadrlarning lavozimni egallashi bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Bu borada yoshlar salohiyati va imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar kechmoqda. Bugun barchamiz yosh



bo‘lishiga qaramay, vazir yoki hokim o‘rinbosari kabi mas‘uliyatli lavozimlarda samarali ishlab kelayotgan umidli kadrlar faoliyatiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Konstitutsiyaga davlat fuqarolik xizmatchilari to‘g‘risidagi qoidalar kiritilishi mamlakatimizda professional xodimlar faoliyatiga e‘tibor yuqori darajada ekanini bildiradi.

Ushbu norma fuqarolar davlat xizmatiga kirishda duch kelishi mumkin bo‘lgan turli to‘siqlarni, jumladan, byurokratiya va tanish-bilishchilikni bartaraf etib, kadrlarni salohiyati va ishtirok qobiliyatiga qarab ishga qabul qilishga qaratilgan. Davlat xizmatiga kirishda nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanishi orqali teng huquqlik amalga oshiriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, bu jarayonda barchaga bir ko‘z bilan qaraladi, “falonchining o‘g‘li”, “pistonchining jiyani” bo‘lgani uchun unga ustunlik berish kabi holatlarga aslo yo‘l qo‘yilmaydi. Eng asosiy mezon professionallik talabi, ya‘ni o‘z kasbini qay darajada chuqur bilishidir.

NUQTAYI NAZAR

2023-yil 30-aprel kuni referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yoqlab ovoz bergan Bosh qonunimizda xalqimiz orzu-umidlari o‘z aksini topgani haqida ko‘p gapirdik. Bunga hech shubha yo‘q, huquqiy asoslarimiz ham yetarli.

Birinchidan, Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar esa 275 tadan 434 taga yetdi. Shu tariqa 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyamiz umumiy hisobda 65 foiz yangilandi.

Ikkinchidan, mana shu o‘zgarishlarning har biri soddada va tushunarli tilda bayon etilib, avvalo, xalq manfaatlarini ko‘zlangani bilan muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan Bosh qonunimizga so‘zsiz va to‘liq bo‘ysunish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilandi. Eng muhimi, mazkur farmon bilan Bosh qonunimiz normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmagani vaji bilan qo‘llashni rad etish qat‘iyan taqiqlandi.

Shunday ekan, oradan besh oydan ziyodroq vaqt o‘tib hammamizni bir savol qiziqtirishi tabiiy: **Konstitutsiyadagi o‘zgarishlar, ular asosida belgilangan huquqiy tamoyillarni jamiyatimizda, oddiy odamlar hayotida o‘z aksini topa boshladimi? Biz konstitutsiyaviy huquqlarimizdan to‘laqonli foydalanishga kirishdikmi?**

Bugun shu savollarga javob topish asnosida guvohi bo‘lgan ba‘zi hayotiy ko‘rinishlarni e‘tiboringizga havola etmoqchimiz.

Ko‘zbo‘yamachilikmi, tushunmovchilikmi yoki...

Prezidentning yuqorida keltirilgan farmonida **“Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 78-moddasida belgilangan bolalar va yoshlarda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, Vatan-**



ga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga oid qoidalarini amalga oshirish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros obyektlariga, jumladan, ko‘rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to‘lovsiz kirish tartibi joriy etilsin”, deyilgan.

78-moddada esa quyidagicha: *Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar*.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Bundan kelib chiqadiki, yurtimiz farzandlari madaniy meros obyektlari, jumladan, ko‘rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga tez-tez borib turishini rag‘batlantirish, avvalo, o‘zimiz uchun foydali. Shu tariqa biz ko‘zlagan maqsad — Uchinchi Renessans hodisasiga yanada keng yo‘l ochiladi. Yoshlarimiz qalbida **“Yangi O‘zbekiston orzusi”** ulg‘aya boradi.

“2014-YILDAN BUYON 18 YOSHGACHA BO‘LGAN BOLALAR VA OTA-ONALARI YOKI O‘QITUVCHILARI BEPUL KIRITILGAN. SHUNINGDEK, HAR YILI 2-8-SENTABR — “MUZEYLAR HAFTALIGI” DOIRASIDA AHOLINING SHU KUNLARI DAVLAT MUZEYLARIGA BEPUL KIRISHI TA‘MINLANGAN. “OCHIQ ESHIKLAR KUNI” ESA O‘Z NOMI BILAN AYTIB TURIBDI: SHU KUNI MUZEYLARGA KIRISH BEPUL BO‘LADI.

Farmonning shu bandi ijrosi ta‘minlangan yoki yo‘qligini bilish maqsadida poytaxtimiz markazida joylashgan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga bordik.

Muzeyda odam siyrak, deyarli yo‘q hisobi. Ammo bugun maqsadimiz boshqa — 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar bu dargohga to‘lovsiz kiradimi yoki aksincha?

Shu savol bilan muzeyning ekskursiyalar bo‘limi mudiri Dilnoza Azizovaga murojaat qildik.

— Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi qarori bilan barcha dav-

lat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta‘minlash maqsadida haftaning har seshanba va juma kunlari bolalarning davlat muzeylariga bepul kirishi kunlari etib belgilangan. Bu an‘ana bizda 2014-yildan buyon davom etib kelmoqda, — deydi D.Azizova. — Shuningdek, ikki yildan buyon Madaniyat vazirligi qarori bilan har oyning birinchi yakshanbasida O‘zbekiston fuqarolarining muzeylarga bepul tashrif buyurishi ham yo‘lga qo‘yilgan. Siz aytayotgan farmonda belgilangan vazifa ijrosiga kelsak, shu yil 25-avgustda tegishli vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilingan qo‘shma qaror asosida O‘zbekiston fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar 2-8-sentabr kunlari o‘tkaziladigan “Muzeylar haftaligi”, har oyning birinchi yakshanbasi “Ochiq eshiklar kuni” doirasida hamda haftaning seshanba va juma kunlari bu obyektlarga bepul kiritilishi belgilangan. Biroq ularni

meros obyektlariga kirish bepul. Prezident farmoni va Konstitutsiya moddasi ijrosini ta‘minlash maqsadida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilingan qo‘shma qaror bilan amalga joriy qilingan tartibga ko‘ra esa endilikda 2-8-sentabr kunlari kirish bepul bo‘larmish.

Axir bu tartib shundoq ham 2014-yildan amalda-ku? Qiziq. Bundan qanday xulosaga kelib chiqadi? Prezident farmonida belgilangan konstitutsiyaviy vazifalar bajariladimi yoki shunchaki xo‘jako‘rsin uchun rasmiylashtirildimi? Buyog‘i mutaxassislar e‘tiboriga havola.

Yangi imkoniyatlar davrini boshlab berdi

Bosh qonunimizda alohida bob bilan advokatura sohasining tuzilishi va daxlsizligi ham kafolatlangan. Prezidentimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga doir farmonida advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar faoliyati mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Jumladan, **2023-yil 1-sentabrdan boshlab OTMlar yurisprudensiya yo‘nalishida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga advokatlik tuzilmalarida mehnat qonunchiligiga muvofiq o‘qishdan bo‘sh vaqtda advokat yordamchisi sifatida faoliyat yuritishga ruxsat etish** vazifasi qo‘yilgan.

Bunday tartib joriy etilishi advokatura sohasini yosh kadrlar bilan ta‘minlash barobarida yuridik soha talabalari uchun ham keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ularga nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llab, yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Shunday ekan, bu amaliyotda o‘z aksini topmoqdam?

Diyaorbek Sattorov, Toshkent davlat yuridik universitetining ommaviy huquq fakulteti 4-kurs talabasi:

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilgani biz uchun yangi imkoniyatlar davrini boshlab bermoqda, — deydi advokatlik firmasida advokat yordamchisi bo‘lib ishlayotgan Diyaorbek. — Maktab davrimizda yuridik sohada o‘qib, o‘qishdan bo‘sh vaqtda ishlay olmayotgan akalarimning “hasrat”larini ko‘p eshitardim. Sababi, yaqin-yaqin-

gacha o‘qish davrida yarim stavka bo‘lsa ham rasman ishlashning qonuniy asosi bo‘lmagan. Shuning uchun ular, oilasiga ozzgina ko‘maklashmoqchi bo‘lsa, kunlik ish topishga majbur edi. Bugun esa men va ko‘plab kursdoshlarimiz ham o‘qib, ham o‘qishdan bo‘sh paytimizda sohamiz bo‘yicha ishlayapmiz. Ishga kirishim tarixi qiziq bo‘lgan. Uchinchi kurs oxirida Polsha ta‘lim dasturida qatnashib keldim. Taassurotlar ancha qaynoq, kelganimda esa undan zo‘r yangilik eshitdim: endi bitiruvchi kurs talabalari advokatlik firmalarida advokat yordamchisi bo‘lib ishlashi mumkin. Kerakli hujjatlarni yig‘ib, bir necha advokatlik firmasiga yubordim. Ularning deyarli barchasidan ijobiy javob keldi. Ular orasida hozir ishlayotganim advokatlik firmasini tanladim. Bu yerda 20 nafarga yaqin advokat faoliyat yuritadi. Ular bilan ishlash men uchun katta tajriba maktabi vazifasini o‘tamoqda. Mazkur tartibning joriy etilishi yuridik soha o‘qituvchilari tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Aynan o‘z sohasida faoliyat yuritayotgan talabalar fikrlash va bilim jihatdan boshqa talabalardan ajralib turadi. Zero, amaliyot nazariy bilimlarning asosidir.

Faqat va faqat o‘zimiz manfaatdormiz

Guvohi bo‘lganimizdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga qo‘llash va unda belgilangan insonparvarlik normalaridan foydalanish holati turlicha. Ammo muhimki, biz o‘zimizni o‘zimiz aldamasligimiz, jamiyatni, insonlarni yolg‘onlarga burkamashimiz kerak. Aks holda, o‘sha-o‘sha, eskicha bo‘lib qolaveramiz.

Zamon, yangi O‘zbekistondagi bugungi islohotlar esa bizdan har jabhada faol, adolatli bo‘lishni, Konstitutsiyamizda belgilangan xalqchil tamoyillarni amalga qo‘llashni, har soat va har kuni taraqqiyot uchun kurashib yashashni talab qilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun anglash va uyg‘onish fursatidir. Zero, Konstitutsiyani chin ma‘noda qo‘llay boshlasak, undan faqat va faqat o‘zimiz foyda topamiz, manfaatdor bo‘lamiz.

**Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



BUGUNNING GAPI

**Mash'al SAIDOV,**
iqtisodiyot fanlari
doktori

Boshlanishi 1-betda

Oshib borayotgan talabni qondirish uchun elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatini har yili ko'paytirib borish, sohada mavjud bo'lgan tabiiy yo'qotilish miqdorini esa kamaytirish talab etiladi. Bu jarayonda elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologiyalarni yangi zamonaviy texnologiyalarga o'zgartirish, magistral liniyalari va hududiy tarmoqlarda foydalanib kelingan elektr uzatuvchi kabellelari va transformatorlarini yangilash muhim. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib, raqobat muhitini rivojlantirish ham zarur. Shuning uchun mazkur tizimni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar hamda sohada kapital qo'yilmalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish borasida samarali innovatsion g'oyalarga asoslangan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Mintaqaviy elektr bozorini yaratishning o'ziga xos afzalliklari

Mamlakatimizda raqobatbardosh elektr quvvati bozorini shakllantirish ichki ehtiyojlarni qondirish barobarida mintaqaviy davlatlarining ham elektr energiyasiga bo'lgan talabini qoplash imkoniyatini yaratadi.

Demak, O'zbekiston hududida mintaqaviy elektr bozorini yaratishning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Buning bir nechtasi sababi bor. Xususan, energiyani ishlab chiqarish va magistral liniyalari orqali uzatish borasida tajriba mavjud. Qolaversa, aynan O'zbekiston mintaqada joylashgan mamlakatlarning barchasi bilan chegaradosh. Bu borada yana bir ustunlik: issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlarining hududlar bo'yicha qulay joylashgani. Yurtimizda elektr energiyasi narxining qolgan mamlakatlarga nisbatan arzonligi ham afzalliklardan biri hisoblanadi.

Bular mamlakatimiz energetika tarmog'ida zamonaviy ilg'or tajribadan foydalangan holda, yangi energiya siyosati olib borish muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston nafaqat o'zini o'zi elektr quvvati bilan ta'minlash, balki uni eksport qilish bo'yicha ham katta imkoniyatga ega. Agar yurtimiz hududida elektr quvvati bozori tashkil etilsa, qo'shni mamlakatlar va ular orqali Eron, Afg'oniston, Pokiston davlatlariga va Xitoyning ayrim hududlariga elektr energiyasini eksport qilish imkoniyati yaratiladi. Agar qo'shni davlatlar bilan kelishuvga erishilsa, elektr energiyasi ishlab chiqarishda xomashyo resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati oshadi. Sohada xalqaro standart me'yorlarga amal qilinishi va zamonaviy boshqaruv usullarining joriy etilishi esa, iqtisodiy samaradorlikni kafolatlaydi.



MARKAZIY OSIYO ENERGETIKA BARQARORLIGI

istiqlol va imkoniyatlar

Mintaqaviy elektr quvvati bozorini shakllantirish uchun energiya ta'minotiga bo'lgan ortiqcha qaramlik darajasi bilan bog'liq xavfni kamaytirish muhim sanaladi. Shuningdek, elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi IES va IEMlarining kreditga bo'lgan layoqatlilik darajasini oshirish ham talab etiladi. O'z o'rinda, yangi issiqlik elektr stansiyalarini qurishda qo'shni davlatlarga yetkazib berish (eksport qilish) imkoniyatlarini e'tiborga olish, quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalari manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish ham katta ahamiyatga ega.

Xalqaro majburiyatlarga amal qilinmoqda

Energetika sohasini rivojlantirish borasida oxirgi yillarda davlatimiz rahbarining bir qancha farmon va qarorlari qabul qilindi. Mazkur hujjatlar energetika tarmog'ida raqobat muhitini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish, elektr energiyasini ishlab chiqarish, magistral liniyalari orqali uzatish va hududiy elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish yo'nalishidagi faoliyatning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Boz ustiga, bozorda ayrim korxona va tashkilotlar uchun asossiz yengillik va qo'shimcha imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechish, tabiiy monopoliya bo'yicha tarkibiy-tuzilmaviy o'zgartirishlar kiritish orqali ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xususlashtirish jarayonini tezlashtirish, bozorda raqobatni cheklashga doir huquqiy me'yorlardan voz kechish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilyapti.

Aytish joiz, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, IES va IEMdagi eskirgan uskunalarini ro'yxatga olib, yangi turdagi zamonaviy vositalar bilan ta'minlash, atrof-muhit ekologiyasiga ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rilayotgani ham e'tiborga molik. Bu mamlakatimizning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash borasida olgan xalqaro majburiyatlariga amal qilinishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta'minlash borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mamlakatimiz energetika tizimini isloh qilishimiz, bu borada aniq strategiya ishlab chiqishimiz lozim. Avvalo, samarasiz va zarar bilan ishlaydigan korxonalarni xususlashtirish, monopoliyani tugatish kerak. Shuningdek, elektr energiyasini yetkazib berishda raqobat muhitini shakllantirish va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish zarur. Buning uchun xususiy sektorni keng jalb etgan holda, ishlab chiqarishni moliyalashtirish bo'yicha bozor mexanizmlariga o'tish talab etiladi", degan edi.

Mintaqamiz bir tomondan energetika resurslariga boy, ammo boshqa tomondan,

o'sha energetika resurslari teng taqsimlanmagan yoki ular turli-tuman. Ya'ningacha suv energetikasi masalalari hal etilmagan muvaffaqiyatli integratsiya yo'lida to'siq bo'lib keldi. Ayni chog'da Markaziy Osiyo respublikalari elektr quvvati ishlab chiqarishni rang-baranglashtirish bo'yicha faol choralar ko'rmoqda. Jumladan, mamlakatlar qayta tiklanadigan energiya manbalarini bo'yicha o'z dasturlarini rivojlantirmoqda. Ostonada Toshkent AES qurilishini rejalashtirmoqda, daryolarning boshlanish qismida joylashgan mamlakatlar gidroenergetikaga urg'u bermoqda.

Mintaqa energetika halqasi

Markaziy Osiyoning energetika tizimi XX asrning 60-70 yillarida yaratilgan. U Markaziy Osiyo elektr energetikasi tizimi yoki mintaqaviy energetika halqasi, deb ataladi. Halqa tashkil etilayotganda, mintaqamizning barcha — 5 ta respublikasini birlashtirgan. O'sha paytda sobiq ittifoq muhandislari ayni tizimni butun mintaqaning energetika resurslaridan eng samarali va oqilona yo'sinda foydalanishni ko'zlab, ya'ni butun boshli tizimning 70 foizini daryolarning quyi oqimida joylashgan davlatlar, asosan, O'zbekiston bilan Turkmanistonda issiqlik energetikasi tarmoqlari



ta'minlashi kerakligini mo'ljallab yaratgan. Qolgan 30 foiz qismi Tojikiston va Qirg'iziston gidroenergetika tizimi zimmasiga tushgan.

O'sha halqa 80 dan oshiq alohida elektr quvvati ishlab chiqaruvchi inshootni birlashtirgan. Qizig'i shundaki, o'sha inshootlarning 29 tasi elektr quvvatini gaz, neft va ko'mirdan ishlab chiqargan. 48 ta inshoot esa suv energetikasi inshooti bo'lgan, ya'ni tizim u orqali uzatib beriladigan jami elektr quvvatining 50 foizdan oshig'i O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelishiga mo'ljallab yaratilgan. O'sha paytda O'zbekiston elektr quvvati ishlab chiqarish bo'yicha eng yuqori darajada turgan, uning jug'rofiy joylashuvi hisobga olinib, chegaradosh qo'shni mamlakatlarni bir-



lashtirishi ko'zda tutilgan. Ushbu tizim sobiq ittifoq parchalanib ketgandan so'ng ham ishlab turdi, chunki 90-yillar boshida bizda boshqa biror muqobil tizim yo'q edi. Ya'ni hamma narsa odat bo'yicha dastlab o'ylanganidek ishlayvergan. O'zbekiston asosiy mamlakat bo'lgani sababli energiyani muvofiqlashtirish markazi ham Toshkentda joylashishi tabiiy bo'lgan.

Keyinchalik, tabiiyki, qo'shni mamlakatlar izolyatsiyalangan energetika siyosatini yurgiza boshladi. Turkmaniston tabiiy gaz xaziralari ko'p bo'la-

lashtirishi ko'zda tutilgan. Ushbu tizim sobiq ittifoq parchalanib ketgandan so'ng ham ishlab turdi, chunki 90-yillar boshida bizda boshqa biror muqobil tizim yo'q edi. Ya'ni hamma narsa odat bo'yicha dastlab o'ylanganidek ishlayvergan. O'zbekiston asosiy mamlakat bo'lgani sababli energiyani muvofiqlashtirish markazi ham Toshkentda joylashishi tabiiy bo'lgan.

Biz ham o'sha jarayonga qo'shilishimizga to'g'ri keladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga boymiz. Qazib olinadigan yonilg'imiz yoki yoqilg'imiz juda ko'p, yana gidroenergetikamiz bor. Darvoqe, Markaziy Osiyo sharoitida gidroenergetika alohida qism, energiya resurslarining alohida turi sifatida ajratib ko'rsatiladi. Mintaqamizda gidroenergetika potentsiali juda katta va biz uni uzoq vaqtdan beri rivojlantirib kelaymiz. Shu sabab, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga o'tish strategiyadir, aniq maqsadlar bor, natija ham bor.

O'zbekiston 2030-yilga borib, energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 30 foizga yetkazmoqchi. Qozog'iston 2050-yilga borib, elektr iste'molining 50 foizini muqobil energiya hisobiga qoplamoqchi. Hozir texnologiyalar o'zgarib bormoqda, innovatsiyalar shunchalik tez hayotga tabiiy etilyaptiki, bir narsani bashorat qilish juda mushkul. Ammo davlatimiz bundan buyon ham shu yo'ldan og'ishmay ketadigan bo'lsa, oldiga yo'yilgan maqsadlarga erishishi shubhasiz.

O'tgan yili nima uchun uzilishlar bo'ldi?

Yodingizda bo'lsa, 2022-yilda elektr quvvati yetkazib berishda uzilishlar bo'ldi. Buning sabablari barchaga qiziq, albatta. Gap shundaki, asosiy muammo texnik sabablarga ko'ra, kelib chiqqan. Bu yerdagi asosiy sabab tizimning eskirgani bilan bog'liq. So'nggi o'n yilliklar mobaynida ushbu tizim, elektr quvvati uzatish liniyalari modernizatsiya qilish uchun sarmoya ajratilmadi. Shu sabab yo'qotishlar ko'p, tabiiy va favqulodda hodisalarga dosh bera olmaydi. Shuning uchun mintaqamizning har bir mamlakatida ilk yomg'ir va qor yog'ishi bilan elektr quvvatini ham ichki, ham tashqi bozorga yetkazib berishda muammolar yuzaga kela boshlaydi.

Tahliliy xulosalar chiqarish uchun bita sababni qidirish xato bo'ladi. Chunki bir-biriga bog'lanib ketgan xatolar turkumi bor. O'sha turkum nimadan iborat? Bular eskirib qolgan elektr energetikasi tizimi, elektr quvvati oqimlari O'zbekistondan qo'shni Qirg'iziston va Qozog'istonga, shuningdek, Qirg'iziston va Tojikistondan O'zbekistonga samarali va oqilona tarzda muvofiqlashtirilmayotgani, butun boshli tizim moliyalashtirilmayotgani va modernizatsiya qilinmayotgani bilan bog'liq.

Bugun muammodan chiqish yo'li sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalariga murojaat qilinayapti. Bilamizki, global pandemiya, iqtisodiy o'sish sur'atlari qisqarishi rivojlangan mamlakatlarning boshqa energiya manbalariga o'tish borasidagi rejalarga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. 2050-yilga borib, elektr energiyasi ishlab chiqarishda ugleroddan foydalanmaslikka erishish rejasini juda ko'p davlatlarda qayta ko'rib chiqilishi haqida gapirilmog'ya. Butun dunyo barqarorroq energetika tizimi va tozaroq yashil iqtisodiyotga o'tmoqda.

Biz ham o'sha jarayonga qo'shilishimizga to'g'ri keladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga boymiz. Qazib olinadigan yonilg'imiz yoki yoqilg'imiz juda ko'p, yana gidroenergetikamiz bor. Darvoqe, Markaziy Osiyo sharoitida gidroenergetika alohida qism, energiya resurslarining alohida turi sifatida ajratib ko'rsatiladi. Mintaqamizda gidroenergetika potentsiali juda katta va biz uni uzoq vaqtdan beri rivojlantirib kelaymiz. Shu sabab, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga o'tish strategiyadir, aniq maqsadlar bor, natija ham bor.

O'zbekiston 2030-yilga borib, energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 30 foizga yetkazmoqchi. Qozog'iston 2050-yilga borib, elektr iste'molining 50 foizini muqobil energiya hisobiga qoplamoqchi. Hozir texnologiyalar o'zgarib bormoqda, innovatsiyalar shunchalik tez hayotga tabiiy etilyaptiki, bir narsani bashorat qilish juda mushkul. Ammo davlatimiz bundan buyon ham shu yo'ldan og'ishmay ketadigan bo'lsa, oldiga yo'yilgan maqsadlarga erishishi shubhasiz.

O'zbekistonda muqobil energiya manbalariga o'tish va mamlakatning energetika tizimini mustahkamlash bo'yicha konsepsiya qabul qilingan. Mamlakatimizda quyosh nuridan va shamoldan elektr quvvati olish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmog'ya. Xitoy, Yevropa, ayniqsa, Fors ko'rfazi mamlakatlari, xususan, Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni bilan memorandum va bitimlar imzolangan. Ular doirasida yirik bunyodkorlik ishlari amalga oshirilyapti. Bir qator shartnomalarda mamlakatimiz iqtisodiyoti, shu jumladan, energetika sohasiga milliardlab dollarlik investitsiyalar kiritilishi nazarda tutilgan.

Quvvat 20-25 foizga oshadi

Mintaqa baribir barqaror energetikaga o'tadi. Lekin bu o'tish har bir mamlakatda

turtlixa bo'ladi. Ammo ijobiy jihat shundaki, sohaga juda ko'p innovatsiyalar joriy etilmoqda. 2018-yilga kelib insoniyatning butun tarixi davomida birinchi marta quyosh energetikasi tannarxi gaz, neft va hatto ko'mir yoqib, issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr quvvati tannarxidan arzonroq bo'ldi. Hozirgi kunda qaysidir davlat yangi elektr stansiyalarini qurmoqchi bo'lsa, an'anaviy issiqlik elektr stansiyalaridan ko'ra, quyosh va shamol elektr stansiyalariga sarmoya kiritish ancha foydali bo'ladi. Yil o'tgan sayin muqobil energiya tannarxi, hatto, Markaziy Osiyo sharoitini hisobga olgan taqdirda ham tobora arzonlashib boraveradi, atrof-muhitni ifloslantirmasligi esa alohida dolzarb ahamiyatga ega.

Qolaversa, yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston atom elektr stansiyasi qurilishini ham rejalashtirgan. Asosiy maqsad — elektr quvvati ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish. Chunki barcha mamlakatlarda u yoki bu sababga ko'ra, muayyan paytlarda elektr quvvati ancha-muncha yetishmay qolayotganini ko'rib turibmiz. Atom elektr stansiyalari juda istiqbolli va jozibali muqobil variant hisoblanadi. Birinchidan, AES Markaziy Osiyo mamlakatlarida ishlatilayotgan issiqlik elektr stansiyalariga nisbatan ancha toza. Odatda ular mavjud elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatini jiddiy tarzda oshiradi. Agar bizda ham atom elektr stansiyasi qurilsa, u mavjud elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatini 20-25 foizga oshiradi. Boshqacha aytganda, yurtimizda joriy etilishi taxmin qilinayotgan AESning belgilangan quvvati 2,5 gigavatt bo'ladi.

Rang-baranglashtirish har qanday energetika tizimini rivojlantirishning asosiy jihatlardan biridir. Mabodo qaysidir mamlakatdan elektr quvvati, gaz yoki neft import qilinayotgan bo'lsa, muqobil ta'minotchilar topishni ham o'ylab qo'yishni zamonning o'zi talab qilmoqda. O'zbekistonda elektr quvvatining 85 foizi gaz yoqiladigan issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Qozog'istonda elektr quvvatining 70 foizi ko'mir yoqib ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalaridan olinadi. Tabiiyki, qazib olinadigan yonilg'i yoki yoqilg'iga qaramlik darajasi juda baland. Buni rang-baranglashtirish shart. Qolaversa, hamkorlik zarur.

Nazarimizda, iqtisodiyot, xavfsizlik, infratuzilma, logistika — barcha sohalarida bog'liqlik yuksakroq darajada bo'lishni taqozo qiladi. Biz bir-birimizga bog'liqmiz. Shuning uchun muammolarni birga hal etishimiz shart. Qo'shni mamlakatlar bo'lganimiz uchun iqtisodiyot sohasida o'zaro hamkorlik qilamiz. Infratuzilma masalasida mintaqada darajasidagi energetika, transport va logistika infratuzilmalari mavjudligi tabiiy. Hamkorlikdan qochib hech qayoqqa bora olmaymiz. Mintaqamiz yuqorida aytib o'tganimizdek, gidroenergetika sohasini rivojlantirish uchun ham katta salohiyatga ega. O'zbekiston Tojikistonda Zarafshon daryosida GES qurish loyihasini birgalikda ishlab chiqmoqda, Qirg'izistonda "Qambarata GES-1" loyihasini amalga oshirish masalasini faol hal etmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo mintaqasidagi energetika xavfsizligi darajasi hamkorlikka bog'liq. Shu bilan birga, hozirgi kunda yuritilayotgan siyosat energetika tizimida qandaydir uzoq muddatli inqirozli vaziyatlarning oldini olishga yordam bermog'ya. Hukumatlar infratuzilmani imkon qadar modernizatsiya qilish, yangilashga intilmoqda. Keng qamrovli modernizatsiya, tabiiyki, ulkan mablag' talab etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari buning uchun xorijdan sheriklar jalb etyapti. Ayni chog'da mintaqada, ayniqsa, mamlakatimizda muqobil energetika manbalariga o'tilayotgani, gidroenergetikani rivojlantirish istiqbolli va unga qiziqish, yangi neftni qayta ishlab inshootlari, yangi issiqlik elektr stansiyalari qurilayotgani yaqin kelajakda ayni kunlardagiga nisbatan ancha yuqori samara beradi.

DOLZARB MAVZU

YOSHLAR TAQDIRIGA TOMOSHABIN BO'LIB
TURISH JAMIYATIMIZ UCHUN MUTLAQO BEGONA

Faxriddin RAHMATOV,
Samarqand viloyati IIB
boshlig'i o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Bu o'rinda yangi O'zbekiston siyosati-ning yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati bilan bog'liq muhim jihatga e'tibor qaratmoqchimiz. Gap shundaki, keyingi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan o'zgardi. Xususan, yigit-qizlarni kitobxonlikka keng jalb etishga kirishildi. Buning uchun moddiy manfaatdorlik ta'minlana boshladi. Kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib, g'oliblarga Prezident sovg'asi sifatida yengil avtomashina taqdim etib kelinmoqda.

Yigit-qizlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi oshdi. O'tgan olti yilda oliy ta'limdagi qamrov 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratilishi ko'zlangan.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasiga ham ustuvor ahamiyat berilyapti. Shu maqsadda maktab bitiruvchilarining kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi uchun sharoit yaratildi. Ular o'zini o'zi band qilishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun imtiyozli shartlarda kredit berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bunday tizimli islohotlarni ko'p sanash mumkin. Lekin bugun oldimizda yana bir katta vazifa turibdi. Bu — yoshlar jinoyat sodir etishining oldini olish. Buning uchun biz, avvalo, sodir etilayotgan jinoyatlar-ning kelib chiqish sabablarini o'rganishimiz zarur bo'ladi.

Demak, oldimizda bitta savol turadi: jinoyat sodir etayotgan yoshlarning hayotda, jamiyatdagi o'rni qanday, ijtimoiy mavqei-chi?

Tahillarga ko'ra, jinoyat sodir etayotgan yoshlarning oilaviy muhitida nuqsonlar borligi ko'zga tashlanadi. Birining ota-onasi o'zaro kelishmovchilikka borib, farzand tarbiyasiga e'tibor qaratmayotgan bo'lsa, boshqasining oilasida ta'lim nazorati susayib ketgani ko'rinadi. Jinoyat sodir etilishiga yana bir omil, bu — telefon va internetga mukkasidan ketish bo'lib topilmoqda. Bu yerda gap internet tarmog'ida turli buz'unchi g'oyalar va ekstremistik ruhda chiqarilgan ta'siri haqida ketyapti. Boshqa bir omil esa yigit-qizlarimizning erta turmush qurishi, oilaviy hayotga to'liq tayyor emasligidir. Shunday holatlarda ham yosh er-xotin o'rtasidagi turli kelishmovchiliklar ba'zan jinoyat sodir etish bilan tugayotganiga guvoh bo'lamiz.

Albatta, bu kabi noxush holatlar va yoshlar taqdiriga tomoshabin bo'lib o'tirish jamiyatimiz uchun mutlaqo begona. Bugun yoshlar orasidagi jinoyatchilikning oldini olishga barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Bu borada nuroniylarimiz salohiyatidan ham unumli foydalanilmoqda. Ularning hayot yo'li, pandu o'g'itlari yosh avlodning barkamol ulg'ayishida qo'l kelishi qadim tajribamizdan ham yaxshi ma'lum. Shuning uchun yoshlarda mehr-oqibat, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini tarbiyalashda keksalarimizning o'rni alohida ekani hisobga olinagan.

Prezidentimizning 2023-yil 11-martdagi "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimo-



moiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida kekse avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili yo'lga qo'yilgan. "Keksalar maslahati" guruhlarini tashkil etilgan. Ular mahallalardagi yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar o'tkazib turishi yaxshi an'anaga aylanmoqda.

Bu kabi sa'y-harakatlar natijasida 2022-yilning o'zida 155 mingga yaqin profilaktik hisobda turgan yoshlar sog'lom turmush tarziga qaytarildi. Shuningdek, 22 mingdan ortiq oila ajrashib ketishi oldi olinib, 3 mingdan ortiq notinch oila yarashtirildi.

Bundan tashqari, yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, ularni, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlari qurish, ishlab tur-

ganlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlar ham jinoyatchilikning oldini olishda muhim o'rin tutadi.

Yoshlarning huquqbuzarlik yo'liga kirib qolishiga quyidagilarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, yoshlarni foydali mehnatga jalb etish, tarbiyalash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan ta'lim muassasalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi inspektorlar kamligi. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida psixolog kadrlar yetishmasligi va boshqa mas'ul idoralar faoliyatidagi jiddiy kamchiliklar. Uchinchidan, ayrim joylarda huquqiy-tarbiyaviy ishlar su-saytirib yuborilgani, nazorat sustligi, ish bilan ta'minlash kabi masalalarning qoniqarli hal etilmayotgani yoshlar o'r-

tasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etish, gijohvandlik, ichkilikka berilish, turli diniy aqidaparastlik g'oyalariga ergashish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Shunday ekan, xalqimizning asriy an'analari hisobga olib, "Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi" degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar samaradorligini yanada yuksaltirishimiz kerak. Qolaversa, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish ham maqsadga muvofiq.

Ochiq aytish kerak, boshlagan islohotlarimiz samaradorligini ta'minlashda yoshlarga suyanamiz. Shu bois, ularning turli oqimlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun barcha imkoniyatlarni ishlarga solish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biz katta marralarni ko'zlaganmiz. Oldimizda nihoyatda mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli vazifalar turibdi. Ularning bari Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va yaqinda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida o'z aksini topgan. Aynan shu hujjatlarda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va farovon hayot maqsadiga erishish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Negaki, Vatanimiz kelajagi, birinchi navbatda, yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liq.

Shu ma'noda, yosh avloddan umidimiz katta. Buni davlatimiz rahbarining 2020-yil O'zbekiston yoshlari forumidagi mana bu e'tirofi ham yaqqol tasdiqlaydi: **"Men har gal yoshlarimiz bilan uchrash-ganimda sizlarning g'ayrat-shijoat-ingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga siddiqdildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman"**.

Prezidentimiz qayerda bo'lmasin yoshlar bilan bog'liq siyosatni nazardan qochirmaydi, kelajagimiz egalari har doim, hamisha e'tibor markazida turadi. Xalqaro minbarlarda ham, xorijga tashriflari chog'ida ham yoshlarning bugungi va ertangi taqdiri haqida qayg'uradi. Bunga biz BMT minbarida, oliy darajadagi mintaqaviy uchrashuvlarda bir necha bor guvoh bo'lganmiz.

Maqsad bitta: yoshlarimiz hech kimdan kam bo'lmay voyaga yetsin, ularning bugungi hayoti ertaga yanada jozibali bo'lsin!

TARAQQIYOT ODIMLARI

REZIDENT HAM, INFRATUZILMA HAM
SAMARADORLIKKA ERISHADI

Iqtisodiy taraqqiyotni sanoat tarmoqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, kimyo sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik yo'nalishlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hayotimizga tobora ko'proq kirib kelayotgan bugungi davrda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi yo'nalishlarni amaliyotga tatbiq etish katta samara beradi. Xalqaro tajribadan ma'lumki, texnoparklar faoliyatida tashqi va ichki investitsiyalar ishtiroki keng ta'minlanib, ularga moliyaviy, soliq, ma'muriy va tashqi savdo imtiyozlari keng qo'llaniladi. Hududiy, ilmiy, texnologik va innovatsion loyihalarni amaliyotga tatbiq etuvchi bunday majmualar yurtimizda sanoat sohasida mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar uchun qulay biznes muhiti yaratilganidan darak. Bu kabi imtiyozlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, import o'rini bosuvchi mahsulotlar tayyorlash imkonini bermog'da. Jahondagi tendensiyalar bilan hamqadam bo'lib, yangi ishlanmalarni hayotga faol joriy etish, yetakchi texnoparklar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim jihat.



Tatariston raisi Rustam Minnixonovning 2021-yil 16-17-iyun kunlari mamlakatimizga tashrifi chog'ida Qozon shahrida faoliyat yuritayotgan "Ximgard" texnopolisi misolida Toshkent viloyatida "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 3-fevraldagi "Toshkent viloyatida "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq esa "Ximgard" AJ bilan hamkorlikda "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkiga asos solindi.



larni qamrab olgani bois ham iqtisodiyot tarmoqlari rivojida muhim rol o'ynaydi. Kimyo-industrial sanoat asosdoni hisoblangan texnoparkka, asosan, shu yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni joylashtirish ko'zda tutilgan. Qiymati 10 million dollardan ziyod 5 ta korxona ishga tushirilgan maj-

muada yil yakuniga qadar yana 8 ta loyiha amalga oshiriladi.

Poytaxt viloyatida qulay ishbiarmonlik va investitsiya muhitini yaratish, mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati katta. Texnoparkda ayni maqsadlarga uyg'un tarzda yuqori texnologiyali, zamonaviy obyektlarni tashkil etish bo'yicha investitsiya loyihalari amalga oshirilib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Soha mutaxassislarining fikricha, investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Texnopark mamlakatimiz sanoati rivojiga xizmat qilib, mahalliy bozorni zarur kimyo va boshqa sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirishga, xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishiga, shuningdek, yurtimiz iqtisodiy taraqqiyoti-ga xizmat qiladi.

Kichik va o'rta biznes vakillarini ishlab chiqarish maydoni hamda yer

uchastkalari bilan ta'minlaydigan platformaga aylangan hududda tadbirkorlar o'z mahsulotlarini joylashtirishlari mumkin. Bu yerda rezidentlarni uzluksiz muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular yer ajratish, ishlab chiqarish binosini qurish, kommunikatsiya tarmoqlarini tortib kelish bilan bog'liq muammolarga duch kelmaydi. Tayyor ishlab chiqarish binosiga o'z uskunalarini joylashtiradi, xolos.

Yaratilgan imkoniyatlardan o'rinni foydalangan "Rhodium Polimer" mas'uliyati cheklangan jamiyati ko'pliklantirilgan polipropilen mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Koreyalik ishbiarmonlar bilan birgalikda amalga oshirilgan loyiha asosida faoliyat olib borayotgan korxonada yiliga 2 ming tonna mahsulot ishlab chiqarilib, 2 million dollarlik eksport qilinadi.

Rezident sifatida faoliyat yuritish juda katta samaradorlikka ega va odamga qo'shimcha kuch-g'ayrat beradi, — deydi "Rhodium Polimer" MCHJ rahbari Dilshodbek Ahmedov. — O'zingizga o'xshab fikrlaydigan, yangilikka intiladigan insonlar bilan gaplashish, yangi loyihalar ustida birgalikda ishlab, kelgusida faoliyatiningizni yanada kengaytirish qiziqarli jarayon. Texnopark hududida alohida soliq, bojxona va valyuta tartiblari belgilangan. Ya'ni foyda, yer va mulk soligidan, bojxona to'lovlaridan (QQS va bojxona yig'imidan tashqari) ozod qilinganmiz. Ko'pliklantirilgan polipropilen ishlab chiqarish loyihasi Markaziy Osiyo bo'yicha bizda ilk bor yo'lga qo'yildi. Avvallari mahsulotga bo'lgan talab to'liq import hisobiga qoplanar edi. Poliolefinlarga asoslangan polimerlarning bir turi sanalgan bu mahsulot avtomobillar himoya ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Yana bir gap, avtotrans-

porti vaznini yengillashtiradi, havoga zararli tashlamalar miqdorini kamaytiradi. Texnoparkning ilk rezidentlaridan biri bo'lgan "VR Plast" MCHJ termoplast mahsulotlar ishlab chiqaradi. Korxona tomonidan tayyorlangan mahsulotlar ichki bozordan tashqari Qozoqiston, Qirg'iziston, Tojikistonga yetkazilib beriladi. Ushbu geografiyani yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

"Himplast Corp" korxonasida esa kimyoviy reaksiyalar va korroziyaga chidamli quvurlar, plitalar termoplastik va kompozit materiallardan mahsulotlar tayyorlanadi. Uning xaridorlari "O'z-kimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar hisoblanishidan ma'lumki, agressiv suyuqliklarni saqlash va shu kabi gazlarni tashishga mo'ljallangan bunday tovarlarga yurtimizning o'zida talab yuqori. Ishlab chiqaruvchi hozirda qo'shni davlatlar bozoriga chiqish niyatida. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 3 million dollardan ortiqni tashkil etadigan kompaniya ishlab chiqarish quvvatini yiliga 1000 tonnagacha yetkazishni rejalashtirgan.

Shuningdek, texnoparkda "Adbluye" brendi ostida dizel dvigatellari katalizatori ishlab chiqaruvchi "Ximicheskiy zavod Orgsintez", dekorativ qog'oz qatlamli listlar ishlab chiqaruvchi "Deconext Corp" kompaniyalari ham faoliyat yuritadi.

Texnopark rezidentlari kimyo, energetika, mashinasozlik, resurslarni tejash va energiya samaradorligi, tibbiyot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes subyektlari hisoblanadi. Majmuaning murakkab muhandislik infratuzilmasi tufayli ular ishlab chiqarishni tez boshlashi, iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlarining zamon talablariga mos tarzda rivojlanishida uni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma subyekti, kimyo sanoati drayveri bo'lgan texnoparklar muhim o'rin tutadi. "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkni ham mahalliy bozorni zarur sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash barobarida, eksport salohiyatini oshirishga, iqtisodiyot tarmoqlari rivojiga xizmat qiladi.

Feruza JO'RAYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

